

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy
DARAJALAR BERUVCHI Ph.D.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAKO'LCHILIK VA CHO'L EKOLOGiyASI ILMiy-TADQIQOT
INSTITUTI**

SEYTMUSAYEVA ZUXRA ABATBAYEVNA

**QORAQALPOQ SUR QORAKO'L QO'YLARINI SAMARALI
URCHITISH VA SELEKSIYALASH XUSUSIYATLARI**

06.02.01-Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish, ko'paytirish, seleksiyasi va
genetikasi. Qorako'lchilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSiyASI AVTOREFERATI**

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам

Abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)
in agricultural sciences

Seytmusayeva Zuxra Abatbayevna
Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini samarali urchitish va seleksiyalash
xususiyatlari.....3

Сейтмусаева Зухра Абатбаевна
Особенности эффективного разведения и селекции каракульских овец
каракалпакского сура.....21

Seytmusayeva Zuxra Abatbayevna
Features of effective breeding and selection of Karakalpak Sur Karakul sheep....39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati
Список опубликованных работ
List of published work.....43

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI Ph.D.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH
QORAKO'LCHILIK VA CHO'L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI

SEYTMUSAYEVA ZUXRA ABATBAYEVNA

QORAQALPOQ SUR QORAKO'L QO'YLARINI SAMARALI
URCHITISH VA SELEKSIYALASH XUSUSIYATLARI

06.02.01-Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish, ko'paytirish, seleksiyasi va
genetikasi. Qorako'lchilik

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3. PhD/Qx 878 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qorako'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) ilmiy kengash veb sahifasi www.tdau.uz va "Ziyounet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gaziyev Adxam
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ro'ziyev Nuraddin Raximovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Donayev Xusniddin Abdiolimovich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E'takchi tashkilot:

Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019 Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashining 2025-yil «10» 06 soat 14 daqiqa majlisi bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2 uy. tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz) Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (552096-raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «22» may kuni tarqatildi.
(2025-yil «25» apreldagi №23 raqamli reyestr bayonnomasi).

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qo'ychilik rivojlangan 45 dan ortiq davlatlarda qo'ylar genofondini genetik-irsiy imkoniyotlaridan oqilana foydalanib, naslchilik ishlarini to'g'ri tashkil qilish asosida go'sht, sut va sifatli teri ishlab chiqarish, jun yo'nalishidagi seleksion tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga qaraganda «...bugungi kunda dunyo miqyosida qorako'l zotli qo'ylar soni 48-49 mln boshni tashkil etib, ular asosan Afg'oniston, O'zbekiston, Janubiy Afrika respublikasi, Namibiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Botsvana va Eron kabi 40 ga yaqin davlatlarda»¹ ko'paytirib kelinmoqda. Bu borada ekstremal cho'l hududlari sharoitida ko'paytirishga moslashgan qorako'l qo'ylarining turli rang, tus, rangbaranglik va gul xususiyatlari bo'yicha eksportbop teri mahsulotlarini ko'paytirish borasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunning muhim dolzarb masalasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bozorida turli rangbaranglikdagi qimmatli qoraqalpoch sur qorako'l teri mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi yetishtiriladigan teri mahsulotlari sifatini oshirishni taqozo etmoqda. Bu borada yetakchi seleksion olimlar qorako'l qo'ylarining o'ziga xos boy genofondini o'rganib chiqish, barcha rang, rangbaranglik, gul tiplari bo'yicha ma'lum bir guruhlarga ajratish va ularni urchitish borasida ma'lum darajadagi tadqiqotlar olib bormoqda. MDH davlatlarida qorako'l qo'ylar bosh sonini ko'paytirish bilan bir qatorda, qo'ybop cho'l o'simliklari turlarini tahliiliy o'rganish asosida foydali cho'l o'simliklari urug'larini tayyorlash va ularni ekishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda qorako'l qo'ylar genofondini kengaytirish va ular asosida seleksiya va urchitish ishlarini olib borish orqali turli mahsuldor zot tiplarini yaratish seleksioner olimlar oldiga qo'yilgan muhim masala hisoblanib, ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda qoraqalpoch sur qorako'l qo'ylarining turli rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarini samarali seleksiyalash, urchitish, ularning salohiyatidan unumli foydalanish borasida yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish, yuqori irsiy genotipli zavod va zot tiplarini yaratish yo'nalishlarida seleksion tadqiqot ishlari bajarilganligiga qaramay, qoraqalpoch sur qo'ylarini seleksiyalash, urchitish, mahsuldor suruvlar guruhlarini yaratish, muhim belgilarning namoyon bo'lish turug'unligini mustahkamlash borasidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda «...mamlakatimizda qorako'lchilik tarmog'i korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, o'zbek qorako'li brendini yaratish va dunyo miqyosida targ'ib qilish, sohani investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlarni amalga oshirish»² topshiriqlari berilgan. Yuqoridagilardan

¹ FAO (Food and Agricultural Organization of the United Nations).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.02.2021 yildagi "Qorako'lchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi" gi PQ-4984-sonli qarori.



Sh.R. Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor

Sh.A. Abdurasulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, v.f.d., dotsent

Q.J. Shakirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

kelib chiqib hududlar tabiiy iqlim sharoiti va qorako'l qo'yalarining ozuqasini inobatga olgan holda qorako'l qo'yalarining tirik vazni ko'rsatkichlarini tahlil qilish, tanlash, seleksiyalash va urchitish orqali baholash, qorako'l sur qo'yalarining rangbaranglik ko'rsatkichlari bo'yicha differensiyalangan juftlashishda belgilarning namoyon bo'lish ko'rsatkichlarini o'rganish, avlodlarning jun va tola sifat ko'rsatkichlarini baholash kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mu'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi hamda 2020-yil 2-sentyabrda PF-6059-son «O'zbekiston respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmonlari va 2018-yil 14-martdagi PQ-3603-son «Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-son «Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari hamda faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qator vazifalar belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarning yechimlarini topishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mavzu yo'nalishida bajarilgan tadqiqot ishlari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V-«Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof - muhit muhofazasi» ustivor yo'nalishiga mos keladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Qorako'l qo'yalarining o'ziga hos rangbaranglik xususiyatlari, ularning seleksiyasini yaxshilash orqali mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish, qorako'l qo'yalarini samarali seleksiyalashda ekologik va genetik omillarining ta'siri, ulardan go'sht va po'stinbop teri yetishtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati, turli sharoitlarda sur rang qorako'l qo'yalarini urchitishning seleksion genetik asoslari hamda Qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarining mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslari kabi yo'nalishlarda Y.Jumaniyazov, M.J.Zakirov, S.Y.Yusupov, R.U.Turganbaev, Q.D.Ochilov, A.Gaziyev, N.A.Boboqulov, E.S.Shaptakov, S.R.Bozorov, A.X.Xatamov, A.A.Urimbetovlar kabi mamlakatimizning qorako'lchi olimlari tadqiqotlar olib borganlar.

Qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarini o'zining kelib chiqishi va tarqalish arealiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida yaratilganligiga qaramasdan Qozog'iston va Turkmaniston kabi bir qator qo'shni ham do'stlik davlatlarida ham ushbu zotga qiziqish nihoyat yuqori darajada bo'lib, yuqoridagi davlatlarda ham qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarini moshlatirish yangi tip va zot tiplarini yaratish orqali ularni rangbaranglik va mahsuldorlik xususiyatlarini saqlab qolish borasida A.S.Axmetshiev, M.Butaevalar tomonidan seleksion tadqiqotlar olib borilgan.

Oxirgi yillarda Orol dengizi suv sathining keskin kamayib ketishi natijasida O'rta Osiyo jumladan Qoraqalpog'istonda ham mavjud yer maydonlarining degradatsiyaga ushrashi natijasida cho'l ekinlari turlariga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi, buning natijasida cho'l maydonlarida parvarishlanadigan qo'yalar bosh soni va ularning biologik-genetik ko'rsatkichlariga ham o'z ta'sirini kuzatish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib mavjud qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarini

urchitish, seleksiyalash, irsiyatini yaxshilash orqali teri rangbaranglik ko'rsatkichlarini differensiyalangan juftlash orqali avlodlar gul va jun tola sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mavzu bo'yicha tadqiqotlar Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti urchitish va naslchilik ishi bo'limining «Qizilqum sharoitida qorako'l qo'yalarini samarali urchitish asosida qorako'l mahsuloti sifatini yaxshilash va ularning mahsuldor suruvlarini yaratish» ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan (2021-2024 yy).

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarini samarali seleksiyalash va urchitish asosida ularning mahsuldorlik va irsiy potentsialidan unumli foydalanish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tirik vazni ko'rsatkichini o'rganish orqali qo'yalarini seleksiyalash, urchitish va irsiyatini sinash;

qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarini rangbaranglik ko'rsatkichlarining ularni rangbaranglik bo'yicha differensiyalangan juftlashda avlodlarda namoyon bo'lish darajalarini o'rganish;

rangbaranglik bo'yicha differensiyalangan juftlash sharoitida avlodlar gul va jun-tola sifatini ko'rsatkichlarining genotipiga bog'liq holda namoyon bo'lish darajalarini o'rganish;

gul tipi bo'yicha juftlashda avlodlarda gul ko'rsatkichlarining namoyon bo'lishining o'zgaruvchanlik darajalarini o'rganish;

jun-tola uzunligi, sifati va rangbaranglik ko'rsatkichlarining namoyon bo'lish darajalari va o'zgaruvchanligiga gul tipi bo'yicha juftlash ta'sirini o'rganish; tadqiqot natijalarini iqtisodiy jihatdan baholash.

Tadqiqotning obyekt sifatida turli rangbaranglikdagi qoraqalpog' sur qorako'l qo'yalarini, qo'chqorlari, qo'zilarini tanlangan.

Tadqiqotning predmeti qoraqalpog' sur qo'yalarini samarali seleksiyalash va urchitishda ularning imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni olib borishda umum qabul qilingan zootexniya, irsiyatning imkoniyatlarini ko'rsatuvchi seleksion, urchitish va statistik usullardan foydalanilgan, qorako'l qo'zilarida seleksion belgilarni baholash «Qorako'lchilikda naslchilik ishlari yuritish va qo'zilarini baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha yo'llanma (S.Y.Yusupov va boshqalar, 2015), olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berish «Руководство по биометрии для зоотехников» (Н.А.Плохинский, 1962) qo'llanmasida keltirilgan usullar asosida statistik ishlov berilgan, o'rtacha arifmetik ko'rsatkich (X), uning xatosi (Sx), o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (Cv), ishonchlilik kriteriyalari (td) va bo'ssaq'alarini (P) aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor shimoliy Qoraqalpog'iston hududi sharoitida sur rangli qorako'l

qo'yarlarni seleksiyalash va urchitish asosida ularning irsiyatini tirik vazn ko'rsatkichi orqali sinash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilib 4,5 oylik bir bosh qo'zidan 28200,0 so'm sof foyda olingan va, 51,4% rentabellikka erishilgan;

ilk bor qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlari seleksiyasida rangbarangliklar bo'yicha differensiyalangan juftlash usullari qo'llanilib, avlodlarda qimmatli rangbarangliklarning chiqimi 7-12 foizga ko'payishi, teri sifatining yaxshilanishi, bir dona qorako'l terisini sotishdan olingan sof foydaning 29700,0 so'mni, rentabellik darajasining 52,9 foizni tashkil etgani aniqlangan;

qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarni rangbaranglik bo'yicha differensiyalangan juftlashda gul sifatiga ta'sir etuvchi jun to'lalari uzunligini 10,7 mm gacha qisqartirish, gullarning sifatini sezilarli yaxshilash mumkinligi isbotlangan;

qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarni gul tiplari bo'yicha gomogen va geterogen juftlashning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanib, gomogen juftlashda gul va jun-tola sifatining sezilarli darajada (10-15%) yaxshilanishi kuzatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Shimoliy Qoraqalpog'iston sharoitida qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlari bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi amaliy natijalar qayd etildi:

qo'yarlarni seleksiyalash, urchitish va ularning irsiyatini og'ir sharoit uchun muhim hisoblangan tirik vazn ko'rsatkichi bo'yicha sinash ishlarining samarador ekanligi aniqlangan. Bunda bo'g'oz qo'yarning tirik vazni rangbarangliklar miqyosida 33,72-35,12 kg atrofida saqlanishi aniqlangan;

qo'yarlarni rangbarangligi bo'yicha gomogen va geterogen usullarda differensiyalangan urchitishdan olingan avlodlarda tirik vazn, uning mutlaq va kumlik o'sish ko'rsatkichlarining ma'lum darajadagi o'zgaruvchanligini ta'minlashi, bunda o'rikgul, shamchiroqqul va qamar rangbarangliklaridagi qo'yalar avlodlari nisbatan yuqori ko'rsatkichlar bilan xarakterlanishi kuzatilgan;

qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarni seleksiyalash va urchitishda ularni rangbaranglik bo'yicha differensiyalashgan, ya'ni turli rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan bir xil rangbaranglikdagi qo'yarlarni juftlash usullarini qo'llash samarali hisoblanadi. Juftlashning gomogen usulni qo'llash samarali bo'lib, geterogen juftlashda ham ma'lum darajada ijobiy natijalarga erishish mumkinligi isbotlangan. Bunda "shamchiroqqul x po'lati" juftlashda ota xususiyatli avlodlar chiqimini 64,8±7,00 foiz, kuchli rang ifodalinishini 66,7-73,3 foiz darajalarigacha yetkazish imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi shundan iboratki, unda qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarni rangbarangliklar, gul tipi bo'yicha differensiyalangan juftlashda muhim seleksion belgilarning namoyon bo'lish darajalari aniqlanganligi, olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berilganligi, ishonchlik kriteriyalari aniqlanganligi, natijalar respublika va xalqaro darajalardagi ilmiy-amaliy anjumanlarda e'lon qilinganligi, Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashi va aprovatatsiya komissiyasida muxokoma qilinganligi shuningdek Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi aprobatatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Qoraqalpog'istonning cho'l hududlari sharoitida qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlari muhim seleksion belgilari namoyon bo'lish darajalari, ularni rangbarangliklari bo'yicha differensiyalangan va gul tiplari bo'yicha gomogen va geterogen variantlarda juftlashitirish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan, ushbu sharoitda seleksion belgilar namoyon bulishi turli omillar ta'sirida konstantligi va kriteriyalari nazariy tomondan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qorako'l qo'yarlari rang, rangbaranglik, gul va jun-tolalari o'lchamli ko'rsatkichlarining optimallashtiruvchi sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, mahsuldorlikning ortishi, qayd etilgan ko'rsatkichlarning ijobiy tomonga o'zgarishi, Qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarni samarali urchitish usuli fermer xo'jaliklarida sur qorako'l qo'yarlarni ko'paytirishda muhim ahamiyot kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarni samarali urchitish va seleksiyalash xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

turli rangbaranglikdagi qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlarning tirik vaznini bashorat qilish usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani «Qorako'lchilik ilmiy-naschilik tajriba stansiyasi» unitar korxonasida joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/017-4791-son ma'lumotnomasi). Natijada olingan qo'zilarning 4,5 oylik yoshida 1 bosh qo'zidan olingan o'rtacha daromad 28,2 ming so'mni, rentabellik darajasi 51,4 foizni tashkil etgan;

turli rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'yarlarni juftlash orqali avlodlar tirik vaznini oshirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani «Qorako'l Nukus» fermer xo'jaligida joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/017-4791-son ma'lumotnomasi). Natijada 4,5 oylik yoshida 1 bosh qo'zidan olingan o'rtacha daromad 29,7 ming so'mni, rentabellik darajasi 52,9 foizni tashkil etgan;

Qoraqalpog' sur qorako'l qo'yarlari barra-teri xususiyatlarini yaxshilash natijalari Qorao'zak tumani «40 jildik sharua» fermer xo'jaligida joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/017-4791-son ma'lumotnomasi). Natijada yuqori sifatli terilar olish hisobiga 1 bosh qo'zidan olingan o'rtacha daromad 10,8 ming so'mni, rentabellik darajasi 47,9 foizni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatatsiyasi. Tadqiqot natijalari Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy - tadqiqot institutining aprobatatsiya komissiyasi (2022-2024 yy), Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxtako'pir tumani «Qorako'lchilik ilmiy-naschilik tajriba stansiyasi» ning ishlab chiqarish yig'ilishlarida (2022-2024 yy), 2 xalqaro va 2 respublika darajalaridagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jam'i 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan 6 ta maqola shundan 1 tasi xorijiy, 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek, 2 ta xalqaro va 2 respublika

ilmiy-amaliy anjumanlarda maqolalar e'lon qilingan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 5 bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti yoritilgan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga, ilmiy muassasaning tematik rejasiga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, aprotatsiyasi, natijalarni amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bayon qilingan.

«**Adabiyotlar sharxi**» deb nomlangan birinchi bobida turli zot qo'yalar, jumladan rang, rangbaranglik, gul tipi genotiplaridagi qorako'l qo'yalarining mahsuldorlik va irsiy xususiyatlarini o'rganish yo'nalishida olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinib, maqsad va vazifalar aniqlangan.

«**Tadqiqotni bajarish manzili, sharoiti, manbai va usullari**» nomli ikkinchi bobida tadqiqot manzili, uning tabiiy-iqlim sharoiti, yaylovlarning o'simlik qoplamini, tadqiqot manbai va usullari va sxemasi yoritilgan. Turli rangbaranglik va gul tiplaridagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'yalari tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan.

«**Turli rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'yalarini seleksiyalash, urchitish va irsiyatini sinash**» nomli uchinchi bobida turli rangbaranglik va gul tipidagi qo'yalar irsiyatini o'zlarining va avlodlarining tirik vazni o'zgaruvchanligi bo'yicha baholash natijalari tahlil qilingan.

Qo'yalarining irsiyatini tirik vazni ko'rsatkichi bo'yicha baholash. Qorako'l qo'yalarining og'ir cho'l sharoitida o'sish va rivojlanishini jadallashtirish muhim bo'lib, bu muammo o'ta og'ir tabiiy-iqlim va yaylov-ozuqa sharoiti bilan xarakterlanuvchi shimoliy Qoraqalpog'iston hududida dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa qo'yalarining bo'g'ozlik davrida yaxshi sharoit yaratish ularning naslidan foydalanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'pchilik tadqiqotlarda aniqlangan.

Qayd etilganlar nuqtai nazaridan tadqiqotlarda foydalanilgan qo'yalarda o'sish va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari ularning gul tiplari va rangbarangliklari miqyosida o'rganildi. Ma'lumotlar 1 va 2-jadvallarda umumlashtirilgan.

1-jadval

Tajribadagi qo'yalarining gul tiplari miqyosida tug'im oldi tirik vazni ko'rsatkichlari

Gul tipi	n	Tirik vazn, kg	
		X±Sx	Cv
Yarim doira qalamgul	25	33,72±0,226 ^{s)}	3,35
Qovurg'asimon	25	32,64±0,222 ^{s)}	3,40
Yassi	25	32,92±0,364 ^{s)}	5,53
O'sikgul	25	35,6±0,282	3,96

X)-P<0,001

Ushbu holatda bo'g'ozligining oxirgi davrida har to'rtala gul tiplaridagi (1-jadval) qo'yalarining vazni tashlashlariga qaramay, statistik ishonchli darajadagi (P<0,001) ustunlik o'sikgul tipli qo'yalarda qayd etildi. Ular ushbu davrda 35,6±0,282 kg tirik vazniga ega bo'lib, tipning ustunligi yarim doira qalamgul tipli qo'yalar ko'rsatkichiga nisbatan 1,88 kilogrammini (P<0,001), qovurg'asimon tipli qo'yalar ko'rsatkichiga nisbatan 2,96 kilogrammini (P<0,001), yassi tipli qo'yalar ko'rsatkichiga nisbatan esa 2,68 kilogrammini (P<0,001) tashkil etgani aniqlandi. O'xshash natijalar qamar rangbarangligi foydasiga rangbarangliklar bo'yicha ham qayd etildi (2-jadval).

2-jadval

Tajribadagi qo'yalarining rangbarangliklar miqyosida tirik vazni ko'rsatkichlari (X-P<0,05; P<0,001)

Rangbarangliklar	n	Tirik vazn, kg	
		X±Sx	Cv
Shamchiroqgul	25	34,32±0,468 ^{x)}	6,81
O'rikgul	25	34,76±0,392 ^{s)}	5,64
Po'lati	25	32,92±0,344	5,22
Qamar	25	35,12±0,332 ^{s)}	4,72

X)-P<0,05; P<0,001

Qo'yalarining irsiyatini ulardan olingan avlodlar tirik vaznining o'zgaruvchanligi bo'yicha baholash. Chorvachilikda, xususan qorako'lchilikda hayvonlar irsiyatini ulardan olingan avlodlar sifatini bo'yicha baholash muhim pog'ona hisoblanadi. Avlodlarning ko'rsatkichlariga qarab ularning irsiy jihatdan qimmatligi aniqlanadi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib tadqiqotlar davomida tajribadagi qo'yalarni asosiy ko'rsatkich hisoblangan rangbaranglik bo'yicha turli variantlarda differensiyalangan juftlashdan olingan avlodlarning tug'ilgandagi tirik vazni o'rganildi (3-jadval).

3-jadval

Avlodlarning tug'ilgandagi tirik vazni

Juftlash variantlari	n	Tirik vazn, kg		
		X±Sx	Cv	
♂	♀			
Shamchiroq	Shamchiroq	30	4,02±0,06	8,71
Po'lati	Shamchiroq	30	3,85±0,05	7,53
O'rikgul	Shamchiroq	30	3,95±0,05	6,83
Shamchiroq	Po'lati	30	3,83±0,05	7,04
Po'lati	Po'lati	30	3,76±0,04	6,38
O'rikgul	O'rikgul	30	3,87±0,04	6,20
Po'lati	O'rikgul	30	3,06±0,06 ^{x)}	8,13
Shamchiroq	Qamar	30	4,04±0,06	8,41
Po'lati	Qamar	30	3,82±0,09	6,81
O'rikgul	Qamar	30	3,90±0,05	7,69

X)-P<0,001

Jadval ma'lumotlari tahlildan rangbaranglik bo'yicha gomogen juftlashda shu turga mansub rangbaranglikning avlodlarda yuqori darajada namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Bunda shamchiroqgul rangbarangligidagi avlodlar salmog'i shu rangbaranglikdagi ota-onalarni juftlash variantida $58,3 \pm 6,36$ foizni tashkil etishini, ushbu ko'rsatkich bo'yicha ular "po'lati x shamchiroqgul" ko'rsatkichidan ($30,0 \pm 5,90$) $28,9$ foiz ($P < 0,001$), "o'rikgul x shamchiroqgul" ko'rsatkichidan ($40,0 \pm 6,30\%$) $18,3$ ($P < 0,05$) ustunlik qilganini qayd etish mumkin.

Shamchiroqgul va po'lati rangbarangliklardagi qo'chqorlardan po'lati rangbaranglikdagi qo'yilarni juftlashda foydalanish oldingi variantdagi avlodlarning rangbarangliklar bo'yicha salmog'idan ma'lum darajada farqlanuvchi natijalarga olib kelishi aniqlandi.

Avlodlarning shamchiroqgul, po'lati, o'rikgul x o'rikgul variantlarida juftlash sharoitida rangbarangliklarga taqsimlanishida ham o'ziga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin (5-jadval).

5-jadval

Avlodlarning rangbarangliklarga taqsimlanishi

Juftlash	Olin		Shundan, % (X±Sx)		
	♂	♀	shamchiroqgul	po'lati	o'rikgul
Shamchiroqgul	O'rikgul	30	$33,4 \pm 8,61$	$13,3 \pm 5,19$	$36,7 \pm 8,80$
Po'lati	O'rikgul	30	$20,0 \pm 7,30$	$20,0 \pm 7,30$	$33,3 \pm 8,60$
O'rikgul	O'rikgul	40	$15,0 \pm 5,63$	$12,5 \pm 5,22$	$70,0 \pm 7,24^{(x)}$

X)-P<0,001

Jadval ma'lumotlarini tahlillashdan ota-onalar rangbarangliklariga bog'liq holda ushbu rangbarangliklarning avlodlarda ustunroq darajada namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Bunda "shamchiroqgul x o'rikgul" juftlash variantida shu ikki rangbaranglikka mansub avlodlar salmog'i $70,1$ foizni, shundan shamchiroqgul rangbaranglikdagi avlodlar salmog'i $33,4 \pm 8,61$ foizni, o'rikgul rangbaranglikdagi avlodlar salmog'i esa $36,7 \pm 8,80$ foizni tashkil etganligi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida shamchiroqgul, po'lati, o'rikgul rangbaranglikdagi qo'chqorlarni qamar rangbaranglikdagi qo'yilar bilan juftlashda olingan avlodlarda rangbarangligiga ta'sir etish kuchi tahlil qilindi.

Ma'lumotlar ota-onalar genotipining avlodlar rangbarangligiga sezilarli ta'sir etishini ko'rsatadi. Ushbu holatda "shamchiroqgul x qamar" variantida shamchiroqgul rangbarangligining $33,6 \pm 9,47$ foiz avlodlarda, qamar rangbarangligining $38,4 \pm 9,73$ foiz avlodlarida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Po'lati x qamar juftlash variant juftlashda $20,0 \pm 8,34$ shamchiroqgul, $25,0 \pm 9,68$ foiz po'lati, $20,0 \pm 8,34$ o'rikgul va $35,0 \pm 10,0$ foiz qamar rangbarangliklari salmog'i kuzatilib, o'rikgul x qamar juftlash variantida ushbu ko'rsatkichlar mutanosib ravishda $10,0 \pm 6,70$; $5,0 \pm 4,80$; $55,0 \pm 11,10$ va $40,0 \pm 10,95$ foiz darajalarida qayd etildi.

Kuzatilgan ma'lumotlardan (3-jadval) avlodlar tirik vaznining ota-onalar rangbarangligiga ma'lum darajadagi bog'liqligini ko'rish mumkin. Ushbu holatda avlodlarning eng yuqori tirik vazn ko'rsatkichi ota-onalarni "shamchiroqgul x shamchiroqgul" ($4,02 \pm 0,06$ kg), "shamchiroqgul x qamar" ($4,04 \pm 0,06$ kg), "o'rikgul x qamar" ($3,90 \pm 0,05$ kg) variantlarda juftlash sharoitida kuzatilishi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda ushbu variantlarda juftlash sharoitida avlodlar tirik vaznining aniqlangan yetarli darajadagi o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlari ($Cv=8,71$; $8,41$ va $7,69$ foiz) qo'yilar tirik vaznini qayd etilgan foizlar darajalarida oshirish imkoniyatining mavjudligidan dalolat beradi.

«Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini rang va rangbaranglik, gul va jun-tola ko'rsatkichlari bo'yicha seleksiyalash va urchitish xususiyatlari» deb nomlangan to'rtinchi bobida turli juftlash sharoitida avlodlar barra-teri xususiyatlarini o'rganish natijalari yoritilgan.

Tadqiqotlar davomida shamchiroqgul o'rikgul va po'lati rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan differensiyalangan holda shamchiroqgul, o'rikgul, po'lati va qamar rangbarangliklardagi qo'yilarni gomogen va geterogen juftlash ishlari olib borilib, olingan avlodlarda muhim rang, rangbaranglik, gul va jun tolalarning namoyon bo'lishiga qarab seleksiya va urchitish ishlarining natijadorligi, qo'chqorlar irsiyatining konstantligi o'rganildi.

Avlodlarning rang va rangbaranglik ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari. Qoraqalpoq sur qorako'l qo'yilarida rangbarangliklarning avlodlarda namoyon bo'lishi o'ta murakkab bo'lib, poligenlik tavsifga ega, ya'ni ularning ko'p genlar bilan boshqarilishi ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishida sezilarli murakkabliklarni keltirib chiqaradi, ularning yuzaga chiqishida yetarli darajadagi o'zgaruvchanlik kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan qoraqalpoq sur qorako'l qo'yilarida rang va rangbaranglik xususiyatlarining namoyon bo'lishida ma'lum bir qonuniyatlarini, stabil ko'rsatkichlarni olish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Avlodlarda rangbaranglikning namoyon bo'lishini o'rganish natijalari 4-jadvalda umumlashtirilgan.

4-jadval

Avlodlarda rangbaranglikning namoyon bo'lishi

Rangbarangliklar bo'yicha juftlash	Olin gan avlodlar	Shundan, % (X±Sx)		
		shamchiroqgul	po'lati	o'rikgul
Shamchiroqgul	60	$58,3 \pm 6,36$	$21,7 \pm 5,31^{(x)}$	$16,7 \pm 4,80^{(x)}$
Po'lati	60	$30,0 \pm 5,90^{(x)}$	$43,3 \pm 6,40$	$11,7 \pm 4,11^{(x)}$
O'rikgul	60	$40,0 \pm 6,30^{(x)}$	$8,3 \pm 3,50^{(x)}$	$45,0 \pm 6,42$

X)-P<0,001; X-P<0,05

oshiradi. Tadqiqotlarda bunday faktorlardan biri bo'lgan juftlanuvchi ota-onalar rangbarangliklarining avlodlar gul uzunligiga ta'sir ko'rsatish darajalari o'rganildi. Ma'lumotlar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Juftlash varianti		Olingan avlod		Shundan, % (X±Sx)	
♂	♀	uzun gulli	o'rta uzunligi	kalta gulli	
Shamchiroqgul	Shamchiroqgul	60	68,3±6,0	16,7±4,80	15,0±4,60
Po'lati	Shamchiroqgul	60	48,3±6,44	38,4±6,27	13,3±4,38
O'rikgul	Shamchiroqgul	60	63,4±6,21	18,3±4,98	18,3±4,98


X-P<0,05; X)P<0,001

Ma'lumotlardan juftlanuvchi ota-onalar rangbarangliklarining avlodlar gul uzunligiga sezilarli ta'sir etishini ko'rish mumkin.

Bunda uzungulli avlodlar salmog'i "shamchiroqgul x shamchiroqgul" variantli juftlashda avlodlarning 68,3±6,00 foizini, "o'rikgul x shamchiroqgul" variantida 63,4±6,21 foizni tashkil etgan bo'lsa, "po'lati x shamchiroqgul" variantida ushbu ko'rsatkichning sezilarli kamayishi (48,3±6,44%) kuzatildi (P<0,05), ushbu holatdan seleksiya jarayonida uzun gulli avlodlar salmog'ini oshirish yo'nalishida foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning «Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini gul tipi bo'yicha samarali seleksiyalash va urchitish xususiyatlari» nomli beshinchi bobida avlodlarda gul, jun tolalari o'lchash va sifat hamda rangbaranglik ko'rsatkichlarining namoyon bo'lish darajalarini o'rganish natijalari yoritilgan.

Zotning asosiy tipi yarim doira qalamgul tipi ekanligini hisobga olgan holda tadqiqotlar davomida ushbu tipdagi qo'chqorlar bilan yarim doira qalamgul, qovurg'asimon, yassi va o'sikgul tipli qo'ylarni gomogen va geterogen juftlash sharoitida avlodlarning gul tiplariga taqsimlanish darajalari o'rganildi. Ma'lumotlar 1-rasmda umumlashtirilgan.



1-rasm. Avlodlarning gul tiplariga taqsimlanishi

Sur rangining ifodalanishi. Sur qorako'l qo'ylarining naslini, qorako'l mahsulotining qimmatligini baholashda rangning ifodalanishi o'ta muhim va hal qiluvchi belglardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni yaxshilash qo'ylarni seleksiyalash va urchitishning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Tadqiqotlar davomida shamchiroqgul, po'lati va o'rikgul rangbarangliklaridagi qo'chqorlar bilan shamchiroqgul, po'lati, o'rikgul va qamar rangbarangliklaridagi qo'ylarni differensiallangan juftlash ishlari olib borilib, olingan avlodlarda rangbaranglikning ifodalanish darajalari o'rganildi.

Ma'lumotlardan "shamchiroqgul x shamchiroqgul" gomogen juftlash variantida aniq rang ifodalanishiga ega bo'lgan avlodlar salmog'ini 90,0±3,87 foizga yetkazish imkoniyatlarining mavjudligi aniqlandi. Ta'kidlash lozimki, ushbu juftlash variantida o'rta (3,3±2,30%) va kuchsiz (6,7±3,22%) rang ifodalanishiga ega avlodlar salmog'i sezilarli darajada pasayishi kuzatiladi, ushbu holatni qo'ylarni seleksiyalash va urchitishda e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Shamchiroqgul rangbarangligidagi qo'ylarni po'lati va o'rikgul rangbarangliklaridagi qo'chqorlar bilan juftlashda boshqacharoq natijalar kuzatilishi aniqlanib, aniq rang ifodalanishidagi qo'zilar bunda "po'lati x shamchiroqgul" variantida 73,3±5,70 foizni, "o'rikgul x shamchiroqgul" variantida esa 66,7±0,08 foizni tashkil etgani qayd etildi.

Tadqiqotlar jarayonida shamchiroqgul va po'lati rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan po'lati rangbarangligidagi qo'ylarni juftlashning avlodlarda rangbaranglikning ifodalanishiga ta'sirini o'rganildi.

Ma'lumotlar seleksion juftlashda, umuman olganda, avlodlarda rangning ifodalanishi yetarli darajadagi yuqori ko'rsatkich bilan xarakterlanishini ko'rsatadi.

Rang ifodalanishi aniqligining turli holatlarida namoyon bo'lish xususiyatlari shamchiroqgul, po'lati va o'rikgul rangbaranglikdagi qo'chqorlar bilan qamar rangbarangligidagi qo'ylarni juftlash sharoitida o'rganildi. Ma'lumotlar 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Avlodlarda sur rangning ifodalanishi		Shundan, % (X±Sx)			
Juftlash	Olingan avlod	kuchi	kuchsiz		
♂ Shamchiroqgul	♀ Qamar	25	20,0±8,0	40,0±9,79	40,0±9,79
Po'lati	Qamar	20	25,0±9,68	45,0±11,1	30,0±10,2
O'rikgul	Qamar	20	25,0±9,68	35,0±10,6	40,0±10,9

Jadval ma'lumotlaridan sur rangbarangliklarining ochiq va to'q variantlari to'qnashuvda rang ifodalanishining o'ziga xos qonuniyatlarini, ya'ni rang ifodalanishining o'rtalashish va to'qlashish, kuchli ifodalanishining susayish holatini kuzatish mumkin. Bunday holatda kuchli ifodalanishning 20,0-25,0%, o'rta ifodalanishning 35,0-45%, kuchsiz ifodalanishning 30,0-40,0% darajalarida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Gullarning uzunligi qorako'l qo'zilarining nasl qimmatini belgilovchi muhim seleksion ko'rsatkich hisoblanadi. Gullarning uzun bo'lishi ushbu qimmatlilikni

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, qo'yilarni gul tipi bo'yicha juftlash avlodlarda ushbu ko'rsatkichning namoyon bo'lishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunda gomogen juftlash (yarim doira qalamgul x yarim doira qalamgul) samaradorligi yuqori bo'lishi aniqlanib (64,7±5,18%), ushbu ko'rsatkich bo'yicha ularning "yarim doira qalamgul x o'sikgul" juftlash variantidan olingan avlodlar salmog'idan sezilarli statistik ustunligi ($P<0,001$) qayd etildi.

U bilan bir qatorda avlodlarning gul uzunligi bo'yicha taqsimlanishi o'rganildi (8-jadval).

Ushbu ko'rsatkichni o'rganish natijalari bo'yicha ham juftlash variantlararo ma'lum farqlanishlarni ko'rish mumkin. Bunda uzun gulli avlodlarning ma'lum darajadagi yuqori chiqimi yarim doira qalamgul tipli qo'chqorlar bilan yarim doira qalamgul (29,4±4,94%), qovurg'asimon (36,8±5,17%) va yassi (37,3±5,30%) tipli qo'yilarni juftlashda kuzatilib, o'sikgul tipli qo'yilar bilan juftlashda keskin kamayishi qayd etildi (17,4±4,08, $P<0,001$).


8-jadval

Avlodlarning gul uzunligi bo'yicha taqsimlanishi

Juftlash varianti	n	Gul uzunligi, % (X±Sx)		
		uzun	o'rta	kalta
♂ Yarim doira qalamgul x ♀ yarim doira qalamgul	85	29,4±4,94	49,4±5,42	21,1±4,42
♂ Yarim doira qalamgul x ♀ qovurg'asimon	87	36,8±5,17	47,1±5,35	16,1±3,94
♂ yarim doira qalamgul x ♀ yassi gul	83	37,3±5,30	48,2±5,48	14,5±3,86
♂ yarim doira qalamgul x ♀ o'sikgul	86	17,4±4,08	46,6±5,37	36,0±5,17

Shu bilan bir qatorda variantlar bo'yicha o'rta uzunlikdagi avlodlar chiqimining deyarli bir xil (46,6-49,4%) ko'rsatkichga ega bo'lishi sharoitida, "yarim doira qalamgul x o'sikgul" variant juftlashda kalta gulli avlodlar salmog'ining boshqa variantlarga nisbatan sezilarli (1,7-2,5 baravar) ko'payishi (36,0±5,17%, $P<0,001$) ro'y berishi aniqlandi.

Rang ifodalanihi. Tadqiqotlar davomida avlodlarda sur rangining ifodalanih darajalari o'rganildi (2-rasm). Olingan ma'lumotlardan ushbu ko'rsatkich bo'yicha rangbaranglik bo'yicha kuzatilgan holatni ko'rish mumkin. Bunda aniq rang ifodalanihining o'zaro deyarli farqlanmagan holda birinchi 3 juftlash variantlarida eng yuqori darajada (82,3-83,1) namoyon bo'lishi va 4 variant ko'rsatkichidan statistik ishonchli ($P<0,001$) ustunlik qilishi aniqlandi (2-rasm). Birinchi 3 variantda 4-variantga nisbatan rangning yetarsiz va noaniq ifodalanihiga ega avlodlar salmog'ining statistik ishonchli darajada ($P<0,001$; $P<0,05$) kamayishi qayd etildi.



2-rasm. Avlodlarning rang ifodalanihi

Rangbaranglik tekisligi. Ma'lumki, rangbaranglik tekisligi jun tolalarining uzunligiga ko'p jihatdan bog'liq. Turli gul tipiga mansub qo'yilar esa jun-tola uzunligi bo'yicha turli ko'rsatkich bilan xarakterlanadi.

Qo'yilarni gul tipi bo'yicha turli juftlashdan olingan avlodlarda rangbaranglikning tekisligini o'rganish natijalarida qovurg'asimon va yassi tipli rangbaranglik etgan juftlash variantlarining (2 va 3 variantlar) ustunligini, bunday ustunlik 1-variantga nisbatan 4,2 foizni, 4-variantga nisbatan 42,2 foizni tashkil etganligi aniqlandi. Juftlash ishlarining 4-variantida yetarsiz tekislikning ($P<0,001$) keskin (51,2±5,39%), notekislikning ma'lum darajada ortishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalarini iqtisodiy jihatdan baholash (iqtisodiy samaradorlik). Dissertatsiya mavzusi bo'yicha qo'yilarni rangbaranglik va gul tipi bo'yicha seleksiyalash va urchitish hamda ularni turli variantlarda juftlash ishlarining natijalarini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish asosida tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Tahlil natijalari 9-jadval umumlashtirilgan.

9-jadval
Tadqiqot natijalarini iqtisodiy baholash (2024 yil baholarida)

Ko'rsatkich	O'l-choy birligi	Rangbaranglik bo'yicha differensiyalangan juftlash bloklari				Gul tipi bo'yicha juftlash varianti			
		I	II	III	IV	YD x YD x	YD x Y	YD x O'	YD x O'
Ja'mi qorako'l teri	dona	180	120	100	65	85	87	83	86
1-nav terilar	%	80,6	78,9	79,4	79,0	87,9	84,9	85,5	67,0
1 dona qorako'l teri tannarxi	ming so'm	88,4	88,4	88,4	88,4	88,4	88,4	88,4	88,4
Jami tannarx	ming so'm	15912,0	10608,0	8840,0	5746,0	7514,0	7690,8	7337,2	7602,4
1 dona qorako'l terisini sotish bahosi	ming so'm	135,0	131,0	133,0	126,0	128,0	130,0	131,0	121,0
Jami daromad	ming so'm	24300,0	15720,0	13300,0	8190,0	10880,0	11310,0	10873,0	10320,0
Foyda (+), zarar (-)	ming so'm	8388,0	5112,0	4460,0	2444,0	3368,0	3620,0	3535,8	2718,0
Rentabellik	%	52,7	48,2	50,5	42,5	44,8	47,1	48,2	35,8

Izoh: YD- Yarimdoira qalamgul; Q-qovurg'asimon qalamgul; Y-Yassi qalamgul; O'-O'sikgul

2. Tadqiqot davomida olingan natijalar, qayd etilgan qo'ylardan seleksiya jarayonida foydalanish, ularni rangbarangligi bo'yicha gomogen va geterogen usullarda urchitishdan olingan avlodlarda tirik vazn, uning mutlaq va kullik o'sish ko'rsatkichlarining ma'lum darajadagi o'zgaruvchanligini ta'minlaydi. Bunda o'rikgul, shamchiroqgul va qamar rangbarangliklaridagi qo'yalar avlodlari nisbatan yuqori ko'rsatkichlar bilan tavsiflanib, qo'y larni samarali seleksiyalash va urchitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Qoraqalpog' sur qorako'l qo'y larni seleksiyalash va urchitishda ularni rangbaranglik bo'yicha differensiyalashgan, ya'ni turli rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan bir xil rangbaranglikdagi qo'y larni juftlash usullarini qo'llash samarali hisoblanadi.

4. Differensiyalangan juftlashda gomogen usulni qo'llash samarali bo'lib, geterogen juftlashda ham ma'lum darajada ijobiy natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi. Bunda "shamchiroqgul x po'lati" juftlashda ota xususiyatlari avlodlar chiqimini 64,8±7,00 foizgacha yetkazish kuchli rang ifodalanishini 66,7-73,3 foizgacha yetkazish imkoniyati mavjud.

5. Muhim ko'rsatkichlardan rangning o'tish keskinligi bo'yicha samarali differensiyalangan juftlash variantlari aniqlanib, bunda "shamchiroqgul x shamchiroqgul" (71,7±5,82%) va "po'lati x po'lati" (70,0±5,92%) gomogen hamda shamchiroqgul x po'lati" (69,6,78%), "po'lati x o'rikgul" (60,0±8,94%) va "shamchiroqgul x o'rikgul" (56,7±9,05%) geterogen variantlardan samarali foydalanish mumkin.

6. Sur rangining tekisligi bo'yicha "shamchiroqgul x shamchiroqgul" (83,3±4,80%), "po'lati x shamchiroqgul" (66,7±6,0%), "o'rikgul x shamchiroqgul" (68,4±6,0%) "po'lati x po'lati" (75,0±5,09%), "o'rikgul x o'rikgul" (60,0±8,94%) variantlarining yuqori samaradorligi aniqlanib, ushbu ko'rsatkichni qamar rangbarangligidagi qo'yalar ko'rsatkichlarini yaxshilashda po'lati rangbarangligidagi qo'chqorlar yaxshi natija beradi.

7. Tadqiqotlarda yetakchi rangbarangliklardagi qoraqalpog' sur qorako'l qo'chqorlardan qo'y larni differensiyalangan usullarda gomogen va geterogen juftlash muhim gul ko'rsatkichlarining yaxshilanishini ta'minlashi aniqlandi. Bunda yarim doira, gul tipi salmog'ini 40,0-85,4% darajasida, uzun gullilikning 68,3 darajasigacha, o'rta gullilikning 88,4% darajasigacha yetkazish imkoniyatlari mavjud.

8. Qo'y larni rangbarangligi bo'yicha differensiyalangan variantlarda juftlash ularning nasl imkoniyatlarini to'laroq va aniqroq ochish imkonini beradi. Bunda ma'lum rangbaranglikdagi qo'chqorlar bilan qaysi rangbaranglikdagi qo'y larni juftlashda muhim selekston belgilar namoyon bo'lishining kuchayishi aniq ko'rinadi va bundan samarali seleksiya va urchitish usullari yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

9. Tadqiqotlarda qo'y larni gul tipi bo'yicha juftlashda selekston belgilarning avlodlarda namoyon bo'lish darajalari va chegaralari turli variabellikda bo'lishi aniqlandi. Bunda gul tipining eng yuqori darajasi "yarim doira qalamgul" x yarim doira qalamgul" variantida namoyon bo'lishi, "yarim doira qalamgul x

Iqtisodiy samaradorlikni rangbaranglik ko'rsatkichi bo'yicha baholash qo'y larni ushbu belgilar bo'yicha juftlashni bloklarga ajratish orqali qorako'l teri sifatiga qarab quyidagi sxema asosida amalga oshirildi:

I-blok. Bunda shamchiroqgul, po'lati va o'rikgul rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan shamchiroqgul rangbarangligidagi qo'y larni juftlash natijalari iqtisodiy baholandi.

II-blok. Bunda shamchiroqgul, po'lati va o'rikgul rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan po'lati rangbarangligidagi qo'y larni juftlash natijalari iqtisodiy baholandi.

III-blok. Bunda shamchiroqgul, po'lati va o'rikgul rangbarangliklaridagi qo'chqorlar bilan o'rikgul rangbarangligidagi qo'y larni juftlash natijalari iqtisodiy baholandi.

IV-blok. Bunda shamchiroqgul, po'lati va o'rikgul rangbarangliklardagi qo'chqorlar bilan qamar rangbarangligidagi qo'y larni juftlash natijalari iqtisodiy baholandi.

Gul tipi bo'yicha yarim doira qalamgul tipli qo'chqorlar bilan yarim doira qalamgul, qovurg'asimon qalamgul, yassi qalamgul va o'sikgul tiplaridagi qo'y larni juftlashda olingan natijalar iqtisodiy baholandi.

Qorako'l terilarining sifati va navdorligi elita va I-sinfli hamda uzun gulli tirik qo'zilar salmog'i bo'yicha aniqlandi, ya'ni bunday qo'zilar terisi albatta yuqori sifatga va I-navlarga mansub bo'lishi nazarda tutildi.

Iqtisodiy tahlil natijalari ko'rsatadiki, rangbaranglik bo'yicha juftlashning I-blokida ma'lum darajadagi yuqoriroq iqtisodiy samaradorlik (52,7%) kuzatilib keyingi II va III bloklarda sezilsiz (48,2 va 50,5 foiz), IV-blokda esa sezilarli (42,5%) pasayish aniqlandi.

Gul tipi bo'yicha juftlashda ma'lum darajadagi farqlanishlar kuzatilib, yuqori ko'rsatkichlar "yarim doira qalamgul x qovurg'asimon" va "yarim doira qalamgul x yassi" (47,1 va 48,2 foiz), pastroq "yarim doira qalamgul x yarim doira qalamgul" (44,8%), ancha past ko'rsatkich "yarim doira qalamgul x o'sikgul" (35,8%) juftlash variantlarida aniqlandi.

Iqtisodiy jihatdan aniqlangan nisbatan pastroq samaradorlik ko'rsatkichlari ham aslida yetarsiz samarador degani emaski, buni olib borilgan maqsadli juftlash ishlarining natijasi deb qarash o'rinni bo'ladi.

XULOSA

1. Qoraqalpog'istonning og'ir ekstremal sharoiti bilan tavsiflanuvchi shimoliy hududida tirik vazn bo'yicha bug'ozlik davrida yarim doira qalamgul (33,72±0,266 kg) va o'sikgul (35,6±0,282 kg) hamda shamchiroqgul (34,32±0,468 kg), o'rikgul (34,76±0,392 kg) va qamar (35,12±0,332 kg) rangbarangliklaridagi sur qorako'l qo'y larni yetarli darajadagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadiki, ularning kritik fiziologik holatda bunday ko'rsatkichlarga ega bo'lishi muhim selekston xususiyat bo'lib, ulardan olinadigan avlodlarning yuqori sog'lomlik va hayotchanligini ta'minlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РfD.05/30.12.2019. Qx.13.02. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

qovurg'asimon" va "yarim doira qalamgul x yassi" variantlarida o'rtalashish, "yarim doira qalamgul x o'sikgul" variantida pasayadi.

10. Juftlash variantlariga bog'liq holda avlodlarda gul kengligi, uzunligi, mustahkamligi joylashish rasmi, jun tolalari va sifat ko'rsatkichlarining namoyon bo'lishida ma'lum farqlanishlar kuzatilib, bunda yarim doira qalamgul tipli qo'chqorlar bilan yarim doira qalamgul, qovurg'asimon va yassi gul tiplaridagi qo'ylarni juftlash variantlarida sezilarli darajadagi ustun ko'rsatkichlar, seleksiya jarayonida juftlash ishlarida o'sikgul tipli qo'ylarning ishtiroq etishi avlodlarda selekston belgilarning namoyon bo'lishini birmuncha pasaytirishi aniqlandi. Shunday holatlar rangbaranglik ko'rsatkichlari bo'yicha ham kuzatilib, bunda ham yuqorida aytilgan juftlash variantlarida sezilarli darajada ustun bo'ladi.

СЕЙТМУСАЕВА ЗУХРА АБАТБАЕВНА

**ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВЕДЕНИЯ И СЕЛЕКЦИИ
КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ КАРАКУЛПАКСКОГО СУРА**

**06.02.01-Разведение, селекция, генетика и воспроизводство сельскохозяйственных
животных. Каракулеводство**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РfD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В более чем 45 странах с развитым овцеводством особое внимание уделяется проведению селекционных исследований в мясном, молочном, кожевенном и шерстном направлениях на основе рационального использования генетического потенциала генофонда овец и правильной организации племенной работы. По данным Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций (FAO), «...сегодня поголовье караульских овец во всем мире составляет 48–49 миллионов, которые разводятся в основном в 40 странах, включая Афганистан, Узбекистан, ЮАР, Намибию, Казахстан, Туркменистан, Ботсвану и Иран»¹. В связи с этим научные исследования по производству экспорториентированной караулевой продукции различных окрасок, оттенков, расцветок и завитковых типов караульских овец, адаптированных к разведению в экстремальных условиях пустыни, являются важной и актуальной проблемой на сегодняшний день.

В настоящее время растущий спрос на мировом рынке на ценную продукцию из караулакского сура различной расцветки требует повышения качества выпускаемой караулевой продукции. В связи с этим ведущие ученые-селекционеры проводят определенные исследования по изучению уникального богатого генофонда караульских овец, разделению их на определенные группы по окраскам, расцветкам, породными и заводским типам и их разведению. Помимо увеличения поголовья караульских овец в странах СНГ особое внимание уделяется заготовке и посадке семян пустынных кормовых растений на основе аналитического изучения видов пустынных растений, пригодных для кормления овец. Расширение генофонда караульских овец и создание различных экстремальных породных типов путем селекции и скрещивания в последние годы стало актуальной задачей для селекционеров и имеет научное и практическое значение.

Несмотря на то, что в Узбекистане проведены исследования по эффективной селекции и разведению караульских овец караулакского сура разных расцветок, разработка новых инновационных методов эффективного использования их потенциала, создание генотипов с высокой наследственностью и породных типов, расширение тематики исследований по селекции и разведению караульских овец караулакского сура, создание высокопродуктивных стад, усиление стабильности проявления ценных признаков считается актуальной проблемой «...проведение комплексной работы по модернизации предприятий караулеводческой отрасли нашей страны, техническому и технологическому обновлению производственных мощностей, созданию и продвижению бренда узбекского карауля на

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/Qx878.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Научно-исследовательском институте караулеводства и экологии пустынь.

Автореферат доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу (www.tdau.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Гаиев Адам
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Рулибов Нураддин Рахимович
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Долаев Хусниддин Абдиломович

доктор философии сельскохозяйственных наук (PhD), доцент

Ведущая организация:

Научно-исследовательский институт шельководства

